



1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

2026-yil 16-may, shanba,
45 (24.225)-son

O'zbek xalq
maqoli

Yot oshingga
qaraydi,
do'st -
boshingga

Zarafshon



www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https://twitter.com/zarnews_uz info@zarnews.uz

Viloyat hokimi Adiz Boboyev boshchiligidagi samarqandlik ishbiarmonlar va rahbarlardan iborat delegatsiya shu kunlarda Amerika Qo'shma Shtatlarida bo'lib turibdi.

Safar davomida viloyatimiz vakillari AQSh shtatlari rahbarlari, yirik kompaniyalar vakillari va tadbirkorlar bilan uchrashuvlar o'tkazmoqda. Jumladan, viloyatimiz hokimi Adiz Boboyev Missuri shtati gubernatori Mayk Kexoy hamda shtat Senati a'zolari bilan uchrashuvda Samarqand va Missuri o'rtasidagi iqtisodiy va investitsion hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Muzokaralar chog'ida hamkorlikni aniq loyihalarga asosida rivojlantirish ustuvor ahamiyatga ega ekanini ta'kidlandi. Xususan, "Bunge" kompaniyasi bilan agrosanoat klasterini tashkil etish, "Post Holdings" kompaniyasi bilan oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash va eksportga yo'naltirish taklif qilindi. Shuningdek, Missuridagi qator kompaniyalar bilan sanoat avtomatizatsiyasi, mebel va qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish, sog'liqni saqlashni raqamlashtirish, turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo'nalishlarida hamkorlik istiqbolli ko'rib chiqildi.

Missuri shtati Vakillar palatasi spikeri Chad Perkins va Senat a'zolari bilan uchrashuvda Samarqand viloyatida Amerika kapitali ishtirokidagi korxonalar soni ortib borayotgani qayd etildi. 2025-yil yakunlariga ko'ra viloyatimiz va AQSh o'rtasidagi tovar aylanmasi 15 million dollarga yetdi. Bugungi kunda Samarqanddan Amerika bozoriga mayiz, quritilgan meva-sabzavotlar, gilam va gilam mahsulotlari, konserva, ichimliklar hamda qalam-pir kabi mahsulotlar eksport qilinmoqda.

Muzokaralar chog'ida Missuri shtati qonunchilik va biznes doiralari delegatsiyasining Samarqandga tashrifini tashkil etish, oliy ta'lim muassasalari o'rtasida



Amerikada "SAMARQAND DIGITAL HUB" innovatsion markazi faoliyat boshladi

hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek, qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat sanoati, logistika, IT va turizm sohalarida qo'shma loyihalarni kengaytirish bo'yicha takliflar ilgari surildi.

Viloyati hokimi Adiz Boboyev AQSh Savdo vazirligining Kaliforniya boshqarmasi hududiy direktori Gabriela Zelaya, Missuri shtatida xalqaro logistika va yuk tashish xizmatlari yo'nalishida faoliyat yurituvchi "ITF Group" kompaniyasi rahbari Saidazim Burxonov, Vebster universiteti prezidenti Tim Kin bilan ham uchrashuvlar o'tkazdi.

Safarining e'tiborli jihatlaridan biri AQShning San Fransisko shahrida "Samarqand Digital Hub" innovatsion markazi o'z faoliyatini boshlagani bo'ldi.

Adiz Boboyev markazda yaratilgan zamonaviy infratuzilma, texnologik imkoniyatlar hamda startaplarga uchun

taqdim etilayotgan sharoitlar bilan yaqindan tanishdi.

Yangi markaz ish boshlagan ilk kundayoq "Humonola Inc" kompaniyasi bilan startap loyihalarini rivojlantirishga qaratilgan hamkorlik memorandumlari imzolandi. Mazkur kelishuv o'zbekistonlik yosh dasturchilar va innovatorlar uchun o'z g'oyalarni global miqyosda, xususan, AQSh bozorida ilgari surish imkoniyatlarini kengaytiradi.

"Samarqand Digital Hub" nafaqat IT va startap ekotizimini rivojlantirishga xizmat qiladi, balki texnologik hamkorlikni mustahkamlashda ham muhim platformaga aylanishi kutilmoqda. Markaz orqali Samarqand viloyatidagi yoshlarning innovatsion salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularni xalqaro investorlar va texnologik hamjamiyat bilan bog'lash maqsad qilindi.

Ibratli oila – bugunning qahramoni

Viloyat hokimligida 15-may – Xalqaro oila kuni munosabati bilan samarqandlik bir guruh oila a'zolariga "Ibratli oila" ko'krak nishonlarini topshirish marosimi bo'lib o'tdi. Marosimda O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari – Oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisi Zulayho Mahkamova, viloyat hokimining birinchi o'rinbosari Sherbek Bo'ronov so'zga chiqib, oilaviy qadriyatlarini asrash, oila institutini mustahkamlash yo'lida olib borilayotgan ishlar ahamiyati, ma'naviy idizlarimiz suv ichgan muqaddas tushunchalar hikmati bugun har qachongidan ko'ra ahamiyatli ekanini ta'kidlashdi.

Ilmiy-madaniy merosimizga tayangan holda oila mustahkamligini asrab-avaylash masalasi butun bir jamiyat safarbar etilgan, dedi Z.Mahkamova. – Bu bejiz emas, sababi oiladagi xotirjamlik va barqarorlik butun bir jamiyatga daxl qilgulik kuchga ega. Turmush farovonligini ko'tarish yo'lida mamlakatimizda ushbu institutga daxldor barcha sohalar, jumladan, ijtimoiy himoya, sifatli ta'lim, tibbiyot tizimi o'zaro uyg'unlikda ish olib borayotir. Oilalardagi muammolar bir paytlar faqat ma'lumotnoma bera oladigan mahalla tizimining o'zida hal etilib, ular bilan ishlaydigan aniq bir mexanizm yaratildi. "Ibratli oila" ko'krak nishonining ta'asis etilishi ham shunday e'tiborning bir ko'rinishi. Aslida hududlardagi har bir ibratli oila o'sha mahallaning qahramoni, mahallaga namunadir. Ularning tajribasidan foydalanish, zarur bo'lsa, targ'ib etish kerak.

Viloyatdagi har bir shahar va tumandan ishtirok etayotgan 16 ta oila vakillariga "Ibratli oila" ko'krak nishoni, "Bu yerda ibratli oila istiqomat qiladi" yozuvli peshlavha va esadlik sovg'alari topshirildi.

Turmush qurganimizga qariyb 50 yil bo'ldi, - deydi Urgut tumani Torinjok mahal-



lasida istiqomat qiluvchi Salohiddin Ibragimov. – Oilam Marhabo Mirzayeva bilan tumandagi 122-umumta'lim maktabida dars berdik. 5 nafar farzandimizni halol yetirib, halol mehnat qilishga undadik. Bugun ular jamiyatning turli jabhalarida mehnat qilmoqda. 22 nevara, 5 evara ko'rib, totuvlikda umr kechiryapmiz.

Viloyat miqyosida sana munosabati bilan 145 ta oila shunday e'tirofqa munosib ko'rildi. Ibratli oila vakillari bilan suhbatlashar ekanmiz, ular oilada murakkabliklar bo'lishi, ularni sabr va ishonch bilan yengib o'tish lozimligini ta'kidlashdi. Bosh vaziri o'rinbosari Zulayho Mahkamova Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida ham bo'lib, talabalar uchun oilaviy qadriyatlar va ularni asrab qolish bo'yicha "Kelajak soati" darsini o'tdi.

Gulruh MO'MINOVA.

МУҚАДДИМА

Хақиқий ёзувчи-шоирлар хақиқатни ёзишни хуш кўради.

Дунёнинг қайси бир четидеги адолатсизлик уларга худди ўзининг уйда рўй бераётгандек туюлади. Қайдадир адолатнинг барқарорлиги ёки ғалабаси уларнинг руҳиятини кўтаради. Улар ҳар бир яхши одамнинг муваффақиятидан қувонади, одамларнинг муаммолари эса уларнинг ҳам дардига айланади.

Улар – ватанпарвар. Ҳар ҳолда Ўзбекистонда худди шундай. Ватаннинг гуллаб-яшнаши, ижобий ўзгаришлар ҳар бир фуқаронинг ҳаётини юксалтириш сари қўйилган қадам эканини теран ҳис қиладилар, кайфиятлари кўтарилди. Худого минг шукрки, бу ўзгаришлар ҳар соатда, ҳар куни рўй бериб турибди. Бутун мамлакат ҳаракатда. Энг муҳими, бу ислохотлар жай-дари тусда эмас, балки жаҳоннинг энг илғор технологиялари асосида олиб борилмоқда. Шароитлар яратилгани тўғрисида инвестициялар бемалол кириб келяпти. Ривожланиш шиддати бутун мамлакатни қамраб олган.

Қалам аҳли бу ва қўллаб бошқа ютуқлардан бохабар. Муаммоларни бартараф этиш йўлидаги сай-ҳаракатларни ҳам мудом сезиб туради.

Яқинда бир гуруҳ ижодкорлар билан кўшни дўст мамлакатда сафарда бўлдик. Бир кеч ўз-ўзидан бадиҳа давра тузилиб, сўхбат гуриллаб кетди. Аввал мазкур мамлакатни Ўзбекистон билан таққос қила бошладик. Бараварига "Биз олдинга кетибмиз" деган хулосага келдик! Бугунги Ўзбекистон ҳақида гаплашдик. Мен етмиш олти йил умр кўрганганим, аммо халқимиз ҳеч қачон бундай яйраб яшамаганини айтиб қолдим. Даврадагилар бу гапимни ҳам бир оғиздан тасдиқлади. Ҳа, шундай! Ҳеч қачон бундай яшамаганим!

Юракларни фахр билан тўлдирган бу эътирофлар қачон кўнглимизни тўлдирди?

Ахир биз эътироф этган ютуқлар ўз-ўзидан пайдо бўлгани йўқ-ку!

Унинг ортида кимнинг меҳнатига заҳмати, бетиним ҳаракати ётибди?

Мамлакатимизнинг барча ҳудудиде ёйилган бунёдкорликка ким ғайрат-шижоат бағишлаяпти?

Саволларга жавоб битта: бу оламшумул зафарларнинг ортида бир кишининг, ҳа, бир кишининг – Ўзбекистон Президенти Шавкат Миромонович Мирзиёевнинг фидокорлиги турибди.

Оз эмас, кўп эмас, Янги Ўзбекистонни қурмоқчи бўлган шу азамат инсоннинг мисли кўрилмаган фидокорлиги!

Мен бу инсон ҳақида кўп ўйладим. Охири, бу одам ҳақида ёзмасам, адолатдан бўлмас



экан деган қарорга келдим.

Йўқ, хушомад қилиш ниятини йўқ. Нимага хушомад қиламан? Ёшим бир жойга борган бўлса, мукофоту унвонларни ҳам ҳеч кимга лиқилмай олган бўлсам...

Бу лўттибозликлар бутун халқ кўз ўнгига рўй берибди. Ҳеч ким миқ этолмади. Қўркув. Бу қўркувдан яралган тақдирсизлик – эртани ўйлашдан чўчиш – мудом елқадан тошдай босиб турди.

Қарз кўтардим. Долларда қарз берганларга долларда қайтариб бериш керак. Банк кассаларининг ёнига ҳам боролмайсан. Банклар долларни сотувга чиқариб, ўзи сотиб олиб ётибди. Одамларини қўйиб қўйган – аллақандай шанги хотинлар...

Бозорга борсан. Ҳар қадамда "долларчи"лар шайқаси... Долларнинг нархи расмий курсдан икки баробар банд. Кўр бўлиб олсан.

Сурхондарёда ғалла етиштирган бир тadbirkor менга учрашиб, ғалласини топширганини, аммо ҳақини еб кетишини айтди. Мен бир-икки амалдорга айтган бўлдим. Бирор натижа чиқмади. Tadbirkor шу хўрликнинг жабридан ўлиб кетди...

У-бу жойлардаги ўзгаришлар одамларнинг дастурхонига етиб келмади. Мамлакатни фирбгарлар босди.

Бу ишга қарши курашиши зарур бўлган ташкилотлар давлат ичида давлат тўздилар. Одамлар устидан зўравонлик жорий этилди.

Масалан, Сурхондарёда хавфсизлик хизмати аллақандай фашистик (бошқа сўз уларнинг

қилмишини ифодалаб беролмайди) тизим ўрнатди. Одамларни пашша ўрнида кўрмадилар. Хўрладилар, мулкларини тортиб олдилар, мисли кўрилмаган қийноқларга солдилар, ўлдириб ҳам юбордилар. Қийноқларнинг Сталин замонида кечган усулларини қўлладилар. Уларни янада янги "поғона"ларга кўтардилар.

– Тирноқларини сўғуриб олдилар, – деб зориллаб эслайди уларнинг қўлига тушган бир беғуноҳ. – Ҳаммасини баравар сўғурсалар ҳам майли эди, ҳар куни биттасини сўғурдилар...

Ҳатто ҳокимларга ҳам тазйик ўтказилди. Бу юртда улар ҳам ишлашдан бешиб қолди. Ноилож ишдан кетиш ҳақида ариза ёздилар.

Мустақилликдан одамларнинг кўнгли қолди. Битта-ярим танишлар менга ҳам таъна қила бошлади: "Ана сиз орзу қилган истиқлол..."

Рости, мен ҳам бебахт яшадим. Газета-журналларда ёзганларимни нашр этиш нари турсин, исм-фамилиямни ҳам ўчириб ташлайдиган бўлишди. Мен нима қилган эдим? Бир кўрсатува "Бировлар ҳаром-ҳарош йўл билан пул тўплайпти. Пайти келгач, пулини кўтариб, хорлигга жўнаб кетади" деган рост гапни айтган эдим, холос. Бу кўрсатув тўғрисида телевидениедаги неча-неча ижодкорлар жазоланди, ишдан кетди...

Тан олайлик, мустақилликнинг илк даврида янги тизимли мамлакатни бунёд этиш, ноқорликдан қутулиш учун бир қадар қаттиққўллик ҳам зарур эди. Аммо мамлакат ривожланиб бorganи сари бу қаттиққўллик ўрнини адолат бўлачиларига мос йўриқлар аста-аста эгаллаб бориши кераклиги ҳам барчага аён эди. Бироқ бундай бўлмади. Чунки энг тепадаги одам ҳам найрангбозларнинг қўлида асирдай яшади.

Юқорида ёзганларимни ҳеч ким рад этолмади. Уларни бор бўйича кўрсатиш учун эса неча жиддлаб китоблар ёзилса бўлади. Мен фақат бошимдан ўтказганларимнинг ва туғилган юртим Сурхондарёда рўй берган машўм воқеаларнинг бир қисминигина эслаяпман.

Авж олган муаммоларни бартараф этиш йўллари ҳеч ким билмасди.

Бироқ Парвардигор билгувчидир! У мамлакатни ривожланиш сари йўналтириш учун нима қилиш кераклигини аниқ билди.

Мамлакат Президентлигига Шавкат Миромонович Мирзиёев сайланди ва... бирдан мўъжизаларга ўхшаш ҳодисалар рўй бера бошлади. Айтиб ўтганим – кўргиликлар битта-битта ечимини топиб кетаверди. Тўлов пластик карталари рисоладагидай ишлаб бошлади. Пенсиялар тўлиқ бериладиган бўлди. Банклар янгича ишлаш тизимига ўтди: хоҳласаларинг, мана



сўм, истасаларинг доллар, марҳамат... Сурхондарёдаги одам қиёфасидаги ҳайвонлар ҳам жазосини олди. Аммо бу ечимларни топиш учун қанчалар сабот ва жасорат керак бўлгани фақат ва фақат Шавкат Миромоновичнинг бир ўзига аён. Ахир қаламга олганим ҳодисалардан ташқари, унинг зиммасида яна қанча-қанча ташвишлар бор эди.

Биргина Сурхон халқини зор қақшатган мустақилликнинг зарарқонданларини шайқасини тугатиш нақадар қийин бўлганини тасаввур қиламан. Ахир улар омондан тушмаган – бу гуноҳларни Тошкентдаги мартабаси банд, бели бақувват, бировини назар-писанд қилмайдиган ҳомийлари қўллаб-қувватлаб турарди. Бу жиноятчилар тўдасининг кўлами жуда катта – бир-бири билан зич боғланиб кетган, халқнинг манфаати деган муқаддас ташуунчани тушида ҳам кўрмаган, одамлар ҳаётини хасдан ҳам арзон билган бедаволардан иборат эди. Аввал мана шу тўданинг боши кесилди. Бу иш осон бўлмади. Бўшангроқ бир одам бўлганда улар билан муроаса мадора этиб кетаверарди. Аммо Шавкат Миромонович бундай қилишни ўзига эп билмади. Чунки ўртада Ватан, халқ тақдирини бор эди. Бўлажак Ватани бундай тўдаларга панжа орасидан қараб эмас, балки бу тоифа ноқислардан тозалаб, покиза ният ва эзгу ҳаракатлар билан яратиш лозимлигини Шавкат Миромонович мудом ҳис этиб турарди.

Ватани ҳалол одамлар яратишини бу инсон жуда теран тушунади.

Қотиллик иллати юққан бу каслардан эл-юрт озод қилинди. Аввал "тепа"даги, кейин пастдаги қатлам илдири билан сўғуриб ташланди. Бу гаплар айтишга осон...

(Давоми 2-саҳифада) >>>

Shifokorning o'ng qo'li

Hamshira shifokorning asosiy yordamchisi, bemorning to'g'ri muolaja olishi uning professional harakatiga bevosita bog'liq. Shuning uchun kezi kelganda, uning bilimi shifokornikidan kam bo'lmastligi kerak. Ayniqsa, bugun, sohaga zamonaviy texnologiyalar jadallik bilan kirib kelayotgan bir paytda o'rta tibbiyot xodimlari ham shu islohotlar bilan qadamba-qadam yurishlari shart va zarur.

Bugun Samarqand shahrida mana shunday tirishqoq, o'z ustida doimiy ishlaydigan hamshiralari soni tobora ko'paymoqda. Ular orasida Samarqand shahar sog'liqni saqlash bo'limi tasarrufidagi 3-tug'ruq majmuasi 1-doyalik bo'limining doimiy xodimlari ham shu islohotlar bilan qadamba-qadam yurishlari shart va zarur.



a'zolari nazariga tushdi.

2004-yilda u davolash profilaktika muassasasiga kunchiqar mamlakat – Yaponiyadan ko'ngilli bo'lib ishga kelgan volontyor Yoka Kavamura bilan hamkorlikda yangi loyiha asosida "Ko'krak sutining ahamiyati" nomli tavsiviylashtirish dasturini yaratdi. Dasturdagi tavsiviylashtirish sog'liqni saqlash boshqarmasi tomonidan ijobiy baholaniib, viloyatimiz shahar va


tumanlarida ommalashtirildi. Inson qaysi sohada ishlamasin, izlanib, o'zi ustida ishlasa, katta natijalarga erishishi mumkin. Ayniqsa, hozir o'rta tibbiyot xodimlariga e'tibor, mehna-ti va intilishiga yarasha haq to'lash tizimi joriy etilgani soha xodimlari-ning zamonga munosib ish yuritishida muhim omil bo'lmoqda. O'tgan yillar davomida Viloyat bir qator o'quvlarida qatnashib, "Emlash xonalarda vaksinator" mutaxassisligini egalladi. Shuningdek, "Zamonaviy akusherlik xizmati ko'rsatishning dolzarb masalalari" mavzusi bo'yicha sertifikatni qo'lga kiritdi. E'tirofli jihati 2018-yilda Viloyat Ashurovaga "Akusherlik va ginekologiya yordami ko'rsatish" bo'yicha sertifikat va o'sha yilning 7 iyulida unga test imtihon komissiyasi tomonidan ikkinchi toifa berildi.

Viloyat O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi va BMT Bolalar jamg'armasi UNICEF tomonidan Samarqand shahrida "Go'daklar nafas olishiga yordam berish" mavzusi bo'yicha o'tkazilgan nufuzli xalqaro o'quv anjumanida ishtirok etib, UNICEFning bir nechta sertifikatlariga ega bo'ldi.

Ayniqsa, o'tgan yillar davomida og'ir xastalik, koronavirus tarqalgan yillari Viloyat qo'l qovushtirib turmadi. Samarqand shahar taqsimlash markazida koronavirusga chalingan yurtdoshlari-mizning hayotini saqlab qolishda fido-yillik ko'rsatdi.

Oiga YAKUBOVA,
Samarqand shahar sog'liqni saqlash bo'limi bosh hamshirasi.

O't-tosh xastaligi nega yosharmoqda?



Keyingi yillarda ilgari faqat kattalarga xos bo'lgan o't-tosh kasalligi o'smirlar va yoshlar orasida ham ko'p aniqlanmoqda. Bu kasallikning "yosharishi" bevosita zamonaviy turmush tarzi bilan bog'liq. O't-tosh kasalligi bu shunchaki og'riq emas, balki organizmdagi modda almashinuvining buzilishidir. Yoshlarda ushbu jarayonning erta boshlanishi unga olib keluvchi ijtimoiy omillar ta'arining oshishi, sog'lom turmush tarziga rioya qilinmayotganligi bilan bog'liq.

Yoshlarda o't qopida har xil toshlar paydo bo'lishiga mavsumiy o'tkir respirator virusli va bakterial kasalliklar bilan kasallanish ham sabab bo'lmoqda. Tartibsiz ovqatlanish, "fast-food", gazlangan va energetik ichimliklar va quuruq tamaddi mahsulotlarini iste'mol qilish o't suyuqligini quyuqlashtirib, harakatlantirishni kamaytiradi. Bu esa o't qopida o't suyuqligi dimlanishiga olib keladi.

Kamharakatlilik, ya'ni kun bo'yi bir joyda o'tirib ishlash o't qopidan o't suyuqligini oqishini qiyinlashtiradi va bu o't qopida dimlanishiga sabab bo'ladi. Suv ichmaslik yoki kam suyuqlik iste'mol qilish, suv o'rni-ga qahva yoki shirin ham cho'y ichish o't suyuqligini quyuqlashtiradi. Keskin parhez, vrachning nazoratsiz ozish vositalari yoki har xil kimyoviy dori vositalarini betartib iste'mol qilish, uzoq vaqt oq qolish o't qopining motorikasini susaytiradi. Bu kasallikning oldini olish uchun

ovqatlanish tartibiga rioya qilish, o't suyuqligining organizmda normal holatda oqimining ta'minlanishi uchun kuniga 4-5 marta, oz-ozdan ratsion bo'yicha ovqatlanish tavsiya etiladi. Kun davomida yetarli miqdorda, yosh va vazningizga qarab 1,5-2 litrgacha toza suv ichish o't suyuqligining suyuqligiga yordam beradi. Har kuni saharida 30 daqiqalik piyoda yurish yoki yengil mashqlar o't yo'llari motorikasini yaxshilaydi. Semizlik xolesterin miqdorini oshiradi, bu esa o't qopida xolesterinli tosh hosil bo'lishi uchun asosiy "xomashyo"dir. Kasallikni noto'g'ri davolash boshqa kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Profilaktika maqsadida yiliga bir marta ultratovush tekshiruvidan o'tish zarur.

Xushvaqt UMIDOV,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti dotsenti, tibbiyot fanlari nomzodi.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada ikki marta - chorshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbor / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

YIG'ILISHDA QATNASHING!

Ishtixon tumanidagi "MITAN DEHQON BOZORI" mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischilarining navbatdagi yig'ilishi 2026-yil 6-iyun kuni soat 12:00 da jamiyat ma'muriy binosida bo'lib o'tadi.

KUN TARTIBIDA:

- jamiyat raising 2025-yil yakunlari bo'yicha hisoboti;
- jamiyatning 2026-yilgi biznes-rejasini tasdiqlash;
- boshqa masalalar.

Yig'ilishga barcha ta'sischilarni taklif etamiz.

Manzil: Ishtixon tumani Mitan qo'rg'oni, Amir Temur ko'chasi, "Mitan dehqon bozori" MCHJ binosi.

JAMIYAT MA'MURIYATI.

DA'VOLAR BO'LSA...

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2012-yil 6-yanvarda 634P-son bilan qayta ro'yxatdan o'tkazilgan O'zbekiston futbolini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudining 2018-yil 29-iyundagi 4-1001-1817/11922-sonli ish bo'yicha hal qiluv qarori bilan tugatilgan.

Shu munosabat bilan unga bildiriladigan barcha e'tirozlar gazetada e'lon chop etilgach, ikki oy davomida qabul qilinadi.

Futbolni qo'llab-quvvatlash jamoat fondi pochta manzili: O'zbekiston Respublikasi Samarqand viloyati, Samarqand shahri, Ko'ksaroy maydoni, 1-uy.

Futbolni qo'llab-quvvatlash jamoat fondining soliq to'laydigan identifikatsion raqami (STIR): 206798588.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasida marhum Kasimova Xalima Xamidovnaga (2018-yil 23-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abu Rayhon Beruniy ko'chasi, 12-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Shukurova Lobar Olimjon qizi notarial idorasida marhum Kodirov Kobil Ergashovichga (2025-yil 24-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Shukurova Lobar Olimjon qizi notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Spitamen shohko'chasi, 157-"B" uy. Mo'ljal: Samarqand viloyati IIB YHXB, shahar mudofaa ishlari bo'limi.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasida marhum Normamatova Malikaga (2024-yil 28-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Xo'ja Ahror Valiy mahallasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Ochilov Salimga (2021-yil 14-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasida marhum Muxamadiyev Ahmadqulga (2024-yil 27-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Lutfiy ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Umid Rustamovich notarial idorasida marhum Muxamadiyev Ahmadqulga (2025-yil 6-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Norqulov Umid Rustamovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Turkiston ko'chasi, 62-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Mirvaydullayeva Lola Vaydullayevnaga (2025-yil 1-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 51-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Shukurova Lobar Olimjon qizi notarial idorasida marhum Rizzayev Axmed Babaralimovichga (2025-yil 5-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Shukurova Lobar Olimjon qizi notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Spitamen shohko'chasi, 157-"B" uy. Mo'ljal: Samarqand viloyati IIB YHXB, shahar mudofaa ishlari bo'limi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Axmedov Raxmatga (1980-yil 25-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nishonova Umida Ismatillayevna notarial idorasida marhum Azizkulov Bobir Tursunkulovichga (2021-yil 1-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan

Zebunniso NAMOZOVA

Viloyat ilm-fani, oliy ta'limi sohasi og'ir judolikka uchradi. Samarqand davlat universiteti Biokimyo instituti dotsenti, biologiya fanlari nomzodi Zebunniso Namozova uzoq davom etgan og'ir xastalikdan so'ng 2026-yil 10-may kuni 49 yoshida olamdan o'tdi.

Zebunniso Namozova 1977-yil 15-mayda Navoiy viloyati Xatirchi tumanida dunyoga keldi. O'rta maktabda o'qigan paytlarida ona-tabiatga, o'simliklar dunyosiga bo'lgan cheksiz qiziqishi uni ilm-fanning katta yo'lga yetakladi. 1994-yilda Samarqand davlat universitetiga o'qishga kirib, biologiya va kimyo mutaxassisligi bo'yicha oliy ma'lumot oldi. So'ngra mazkur dargohda katta laborantlikdan boshlangan mehnat faoliyati aspirantura, kafedra assistentligi va nihoyat, dotsentlik darajasigacha bo'lgan yo'lni qamrab

oldi. Z.Namozova bor kuch-g'ayratini o'zbek botanika ilmini rivojlantirish, talabalarga fan sirlarini o'rgatishga qaratdi.

Olima o'zining ilmiy salohiyati bilan talabalarga dars berdi, 2 nafar fan nomzodiga rahbarlik qildi.

Z.Namozova biologiya sohasida ta'lim sifatini oshirishga ulkan hissa qo'shib, talabalar uchun mo'ljallangan ko'plab darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalarga mualliflik qildi.

Zebunniso Namozova samimiy tabassumi, o'z ishiga bo'lgan mas'uliyati, talabchanligi va shu bilan birga nihoyatda kamtarligi bilan universitet jamoasi, hamkasblari yodida qoladi.

Inson umri yashagan yillari bilan emas, ortidan qoldirgan yaxshi nom, yozgan ilmiy asarlari, yaratgan darsliklari va tarbiyalagan shogirdlari bilan o'lchanadi. Zebunni-



so Baxronovnaning qisqa, ammo mazmunli kechgan umr yo'li bunga yorqin misoldir.

Olimaning oila a'zolari va yaqinlariga chuqur hamdardlik bildiramiz.

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI BIOKIMYO INSTITUTI JAMOASI.

merosxo'rlarning Nishonova Umida Ismatillayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 132-uy, 2-xona.

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Sadullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Sulaymanov Valixon Alixonovichga (2025-yil 26-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Sadullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi Amir Temur ko'chasi.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Nafasov Anvarga (2017-yil 26-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 76-uy.

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hamidov Norbek Komil o'g'li notarial idorasida marhum Sattarov Nasurullo (2024-yil 27-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hamidov Norbek Komil o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Past Darg'om tumani Juma shaharchasi, Amir Temur ko'chasi, 48-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasida marhum Mirsaidova Xolida Barakayevnaga (2025-yil 25-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abu Rayhon Beruniy ko'chasi, 12-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Azizov Sherzod Ilhomovich notarial idorasida marhum Raximova Barnoga (2022-yil

24-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Azizov Sherzod Ilhomovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Chikayev Rashid Xakimovichga (2025-yil 14-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

BEKOR QILINADI

Sotuvchi "AGROMIR BUILDINGS" MCHJ nomidan ishonchnoma asosida X.T.Abidov va sotib oluvchi Xamrayev Temur Sanjarovichlar o'rtaida Samarqand shahri Obod maskan mahallasi, Qorasuv maskani, 78-ko'p qavatli turarjoy binosining yerto'la qismidagi omborxonaga uchun "Best realtor" MCHJ Samarqand mintaqaviy filiali vositachiligida 2023-yil 2-martda o'tkazilgan to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar natijasida tuzilgan 040-sonli kelishuv bayonnomasi va ushbu bayonnomaga asosida 2023-yil 2-martda tuzilgan oldi-sotdi shartnomasi hamda topshirish-qabul qilish dalolatnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand shahridagi "ABDURAXMON NISBOT QURILISH" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 307453372) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Kattaqo'rg'on tumanidagi "DOSTONBEK GOLD GARDENS" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 307453372) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

TOPGANGA MUKOFOT!

Xabibov Daler Abduravilovichga qarashli davlat raqam belgisi 30 356 MA bo'lgan "LIFAN LF150-10B" rusumli motosiklning davlat raqami belgisi Samarqand shahri hududida yo'qolgan. Ushbuni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

Telefon: +99890-453-55-55.

Saxovatli saxiy kuzdek...

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, taniqli yozuvchi va shoir Abdusaid Ko'chimov 1951-yilda Urgutda tug'ilgan. Toshkent davlat pedagogika institutining o'zbek tili va adabiyoti fakultetini tamomlagach, mehnat faoliyatini «O'qituvchi» nashriyotidan boshlagan. Keyinchalik "Lenin uchquni" gazetasida, "Sharq yulduzi" jurnalida, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi raisi va boshqa qator mas'ul lavozimlarda ishlagan. Yigirmaga yaqin she'riy va nasriy kitoblari chop etilgan. 2017-yildan bugungacha O'zbekiston Milliy axborot agentligi Bosh direktori lavozimida ishlab kelmoqda. «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist» unvoni, «Mehnat shuhrati» ordeni hamda «Shuhrat» medali, «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi» faxriy unvoni bilan taqdirlangan. "Zarafshon" va "Samarkandskiy vestnik" gazetalarini jamoasi ustoz jurnalistni 75-bahori bilan tabriklab, uzoq umr, mustahkam salomatlik, ulkan ijodiy yutuqlar tilaymiz!



VATAN

Boshingda osmonu, qoshingda quyosh, Tasvirning chizolmay musavvir halak. Shoir so'z axtarib qotiradi bosh, Buloqday qaynaydi oshufta yurak. Parivash jamlan qiladi ko'z-ko'z, Bag'ringda barq urgan har gul, har qiyof. Faqat shoiringga yetishmaydi so'z, Faqat musavvirga yetmaydi bo'yoq.

JAVOB

Bir nihol ekdingmi Vatan bog'iga, Mehriingni to'kdingmi cho'l, yantog'iga, Gullarga chang-g'ubor qo'ngan chog'ida Arta biloldingmi changu g'uborni - Desalar, yurtdoshim, javobing bormi?

Bitta g'isht qo'ydingmi maydonlariga, Bir vassa o'ydingmi ayvonlariga, Bir misra qo'shdingmi dostonlariga, Kurab tashladingmi tomlardan qorni - Desalar, yurtdoshim, javobing bormi?

Kimdir uzib ketsa dilbar gullarni, Kimdir buzib ketsa sarvar yo'llarni, Kimdir ezib ketsa muztar dillarni, Duosin oldingmi mehrga zorni - Desalar, yurtdoshim, javobing bormi?

Urush-janjallarga xamirturushlar, Illatfurushlaru, millatfurushlar, Afif osmoningga qilsa xurujlar, Hosud haqirlarga tikdingmi dorni - Desalar, yurtdoshim, javobing bormi?

Javobing bo'lmasa mumtoz-mukammal: Qo'lingda zulfiqor, belingda kamar, Duldul tulporingga yor bo'lsa qamar - Yo'ldoshing sab'ai sayyor bo'ladi, Muqaddas javobing tayyor bo'ladi.

TANTI O'ZBEK

Saxovatli saxiy kuzdek Saodatli eldir o'zbek, Buqabo'yin - man-manlarga Parvo qilmas janda-bo'zdek. Jahondagi biron millat, El-ulusdan yo'qdir kami. Yulduzlardek boqiy qudrat - Ajdodlarin qutlug' sha'ni. Bobolarin qancha xalqlar Bizniki, deb talashadi. Bunday sharaf - shoyon taxtlar O'zbekka xo'p yarashadi. Azal-abad sochar yog'du "Avesto"dek bo'stonlari. Jasoratga jasur ko'zgu "Alpomish"bek dostonlari. Do'stlariga mehri quyosh, Do'stlariga qurbon joni, Pashsha kabi ezar, bebosh Allop-qallob, bevafo. Havas bilan boqar dunyo Tog'day ko'rkam savlatiga. Dur mahliyo, nur mahliyo O'zbekiston davlatiga. Ne-ne fohih, ne-ne hoqon Sinab achchiq omadini, Ega olmay tutdi motam O'zbekning alp qomatini.

Mirzo Ulug'bek haykali qoshida Yulduzlarni sanash mumkindir balkim, Hisoblash mumkindir sayyoralarini. Sanab sanog'iga yetolmas hech kim O'zbekzaminidagi allomalarni. Mana, ming yillarkim hayratda bashar Beruniy, Navoiy, Kubrolarimga. Yana ming asrlar ta'zimga shoshar Mirzo Ulug'bekdek daholarimga.

Abdusaid KO'CHIMOV.

Odatda hokimlar maqola yozsa yoki chiqish qilsa, asosan o'z hududidagi ijtimoiy-iqtisodiy masalalar haqida gapirishga urinadi. Oila masalasi, undagi muammolar bilan tegishli tashkilot vakillari shug'ullanishi kerak, degan tushuncha shakllanib qolgan. Bu safar shu qoliplardan chekingan holda oila masalalari haqida to'xtalishga jazm qildik. Chunki oilaviy ajralishlar o'sha kichik makondan chiqib, endilikda jamiyatda ham yirik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu masalaga barchaning jiddiy va mas'uliyatli yondashuvi zarur. Yoshlar bilan ishlaydigan tashkilotlardan boshlab, nuroniy otaxon va onaxonlarimizni birlashtirgan jamoalargacha.

HOKIM bong uradi:

AJRIM SOYASIDA QOLAYOTGAN

BOLALAR

Oila — jamiyatning eng nozik va eng muqaddas, shu bilan birga mustahkam poydevori. Shu bois bizda azaldan oilani muqaddas bir qo'rg'on sifatida e'zozlaganlar. Uning mustahkamligini ta'minlash oila kattalarining, qolaversa, mahallaning muhim vazifasi bo'lgan.

Lekin afsuski, bugun ana shu muqaddas va mustahkam qo'rg'onning ustunlari darz ketayotgandek. Arzimagan sabablar tufayli guldek oilalarning ajrim yoqasiga kelib qolayotgani achinarli. Bir kunlik o'rganishlarim davomida ko'rgan haqiqatlarim dilimni ranjiti. To'g'risi, men oila a'zolarining ota-onalik burchi, er-xotinlik mas'uliyatini, farzandlar oldidagi majburiyatlarini unutayotganlari bois ajrim soyasida qolayotgan norasida bolalarga achindim.

Men o'rgangan bir xonadonda 4 nafar farzand bor ekan. Ajrim yoqasidagi ushbu oilada ota-onaning har biri o'zicha haq. Erining topgan pulini havoga sovurgan ayol, 20 yillik turmush davomida boshpana qilishga ulgurmagani ota va hokazo... Lekin hech kim bolalarning "biz kim bilan qolamiz?", "biz nima ayb qildik?" degan savollariga javob berolmaydi. Oilada 4 bolaning borligi nechog'lik inoyat ekanini tushunmaslikning o'zi qanchalik mas'uliyatsizlik. Axir oramizda 10-15 yillik turmushi davomida tirnoqqa zor bo'lib, lekin bir-birini qo'llab, mehr bilan yashayotgan oilalar kammi? Onalik mehri his qilish uchun batta bola asrab olishga ro'yxatda turgan minglab oilalar bor. Achinarlisi, 4 nafar farzandi bo'la turib ajralishni istayotgan er-xotinining harakatlarini hech narsa bilan oqlab bo'lmaydi.

Ikkinchi notinch oilada esa tashqi ta'sir va mustaqil qarorning yo'qligi unga darz yetkazgan. Ayol mehnatkash, oila uchun kurashayotgan sabr-bardoshli inson. Lekin er xiyonatkor. Er-xotin o'rtasida aylanayotgan gap-so'zlar, aralashuvlar allaqachon oilaning parokandaligiga sabab bo'lgan. Bu yerda bolalar bor, ammo "ota-ona" degan yagona tushuncha yo'q.

Uchinchi oilada ikki nafar farzand bor. Bu yerda ajrimning sababi kelinning xatosi, telefon orqali boshqa bir inson bilan suhbatlashgani. Er va qaynona uni xiyonatkor deb hisoblaydi.

Oilalarni yarashtirishdagi bir kunlik o'rganishlarim qalbimda og'riqli iz qoldirdi. Achinganim ajralishni istayotgan er-xotinlar sabab ajrimlar soyasida qolib qalbi o'ksiyotgan, shirin bolaligi o'g'irlanayotgan 11 nafar o'g'il-qizning taqdiri bo'ldi.

"Bir oila buzilsa, arshi a'lo larzaga keladi". Bu shunchaki gap emas, bu hayot haqiqati.

Oilani mustahkamlash uchun avvalo, uning ustunlari baquvvat bo'lishi lozim. Yangi oila tuzishdan oldin ota-onalar oila qurayotgan yigit va qizning qarashlari, ma'naviyati, fikrlashi bir-biriga mosmi, zarurat tug'ilganda bir-birini qo'llay oladimi, qiyinchiliklarni birga yengishga qodirmi, degan savollar haqida o'ylashlari kerak. Ushbu masalaga buyuk bobokalonimiz Amir Temur juda jiddiy yondashgani tarixdan ma'lum. Sohibqiron shunday deydi: "O'g'illarim, nabiralaring va yaqinlarimni

uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e'tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko'rdim. Kelin bo'lmishning nasl-nasabini, yetti pushtini surishtirdim. Xos odamlar orqali sog'lik-salomatligini, jismonan kamolotini aniqladim".

Xo'sh, bugun-chi? Bugungi og'riqli haqiqat shuki, bizda mustahkam oila barpo etishga emas, balki dabdabali to'y qilishga shoshiladilar. Aksariyat oila kattalari toparman-tutarman, obro'li joy bilan quda bo'lishni o'ylashadi. Farzandning sarpo-surug'ini zo'r qilishni, mashhur san'atkorlarni to'yga aytishni, nufuzli to'y-xonalarda bazmni tashkil etishni birinchi o'ringa qo'yishadi. Qarindosh-urug'lar bilan o'tadigan to'y maslahatida bir kunlik to'y muhokama qilinadi, xolos. Lekin hech kim ikki yoshning kelgusida oilani qanday mustahkam saqlashi, ularga qanday yordam kerakligi haqida o'ylamaydi.

To'y ham o'tdi deylik. Ana endi qaynona bo'lmish oilaga yangi kelgan kelinni parvarish qilish, yangi muhitga mehr bilan moslashtirish o'rni uning ishlaridan kamchilik qoldira boshlaydi. Kelin ham bir nihol misoli. Yangi niholni ham yerga qadaganda yaxshilab parvarish qilinsagina ildizi mustahkam daraxtga aylanadi. Aks holda sekin esgan shamol ham uni qulatadi. Oiladagi qaynona ham qachonlardir kelin bo'lgan. O'zi bosib o'tgan yo'lni, hayot tajribalarini yangi kelinga tushuntirsa, mehr bersa, kelin yangi muhitga tezroq ko'nikaadi, moslashadi. Kelin oilaga keldimi — uni begona emas, o'z qizidek qabul qilishi kerak. Qaynona faqat talab qiluvchi emas, o'rgatuvchi, yo'li ko'rsatuvchi bo'lishi zarur. "Sen bundaysan, sen undaysan" deb turtilash emas, "kel, birga o'rganamiz" deb qo'lidan ushlab joiz.

Nimadigir ajrim yoqasidagi oilalarda kelinni, ayolni aybdor qilish ko'p uchraydi. Bu juda noto'g'ri. Ayol — ona, ayol — turmush o'rtog'i, ayol — kelin. Uning vazifalari ko'p oilada. Eng muhimi, oilalar davomchisi bo'lmish farzandni dunyoga keltiradigan, naslini davom ettiradigan zot. Shuning o'zi uning qanchalik buyuk va sabrli ekanini ko'rsatadi. Demak, uni tushunish, kamchiliklarini kechirish, eng muhimi — qo'llab-quvvatlash darkor. Ayolni ayblash oson. Lekin uning yonida turish, dalda berish — mana shu haqiqiy insoniylik barcha qaynona va oila a'zolariga ham xos emas.

Oila muqaddasligining yana bir jihati shundaki, er-xotin o'rtasida, oilada sirlar bo'ladi. Uni boshqalar bilishi shart emas. Afsuski, ajrimlardagi ayrim holatlarda bir yostiqa bosh qo'yg'an er-xotin ana shu muqaddas sirlarniyam begonalar oldida oshkor qiladilar. Lekin ayrim ayollar oilamni asrayman, undagi gaplarni ko'chaga chiqarsam, turmush o'rtog'imning hurmati yo'qoladi deb tazyiq, haqoratlar ostida yashasa-da sabr qiladi. O'z joniga qasd qilish holatlarining aksariyati ana shunday tarzda hayot kechirgan ayollarga to'g'ri kelmoqda.

Og'riqli nuqtalardan yana biri — oilaga uchunchi shaxsning aralashuvi. Bu o'tga yog' sepih kabidir. Bir tomondan gap, ikkinchi tomondan gap — orada esa yoshlar iztirobi. Oila — ikki insonning hayoti. Uni

barbod qilishga hech kimning haqqi yo'q. U opami, singil yoki aka, uka yo' boshqa yaqin qarindosh...

Shu o'rinda yana bir masalaga e'tibor qaratish lozim deb, o'ylayman. Aksariyat hollarda oilani mustahkamlashda faqat qizlar bilan, kelinlar bilan ish olib boriladi. Nimadigir ikkinchi tomon erkak kishining bu boradagi mas'uliyatiga unchalik e'tibor qaratilmaydi. Qizlarga qisman bo'lsa-da maktabda yoki uyda oilaga tayyorlash bo'yicha tushuntirishlar beriladi. Lekin yigitlarni oilaga tayyorlash masalasi kun tartibida emas. Bu borada sustkashlik ustuvor. Ushbu masalaga bugun yoshlar ishlari mas'ullari jiddiy yondashishlari lozim. Yigitlarni oila qurishga tayyorlash, erlik, keyinchalik otalik mas'uliyati qanday bo'lishi lozimligi haqida tushuntirish ishlari olib borish maqsadga muvofiq.

Erkakning o'z ayoli oldida moddiy va ma'naviy burchlari bor. Oila qurilgach, ayoliga, farzandlariga ilm berish, ularga yaxshi munosabatda bo'lish, tinch-totuv, osoyishta hayotini ta'minlash erkakning ma'naviy burchi hisoblanadi.

Bugun ajrimlarning oldini olish, oilalar mustahkamligini ta'minlash oldimizda turgan asosiy va dolzarb masaladir. Albatta, bu borada Kattaqo'rg'on shahrida ham tizimli ishlar olib borilmoqda. Statistika e'tibor qaratadigan bo'lsa, o'tgan yil shaharda ajrimlar natijasida 35 nafar bola ota-onasi alohida yashaydigan sharoitga tushib qolgan. Bu holatning oldini olish maqsadida har chorshanba kuni shahardagi "Oila maskani"da oilaviy masalalarga bag'ishlangan qabul va suhbatlar tashkil etilmoqda. Unda ajrim yoqasidagi oilalar, nizoli juftliklar hamda murojaat qilgan xotin-qizlar bilan ochiq muloqotlar o'tkazilib, muammolarni joyida hal etishga erishilayotadi.

Qolaversa, mahalla va mas'ul tashkilotlar hamkorligida oilaviy nizolarni bartaraf etish, ajrimlarning oldini olish, aliment masalalari va xotin-qizlar murojaatlarini kompleks hal etishga qaratilgan qo'shma qaror doirasida "Samarqand tajribasi"ni joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Qaror asosida shaharda "Nuroniy" jamg'armasi shahar bo'limi, oila va xotin-qizlar bo'limi hamda mahallalar uyushmasi hamkorligida 66 nafar faollardan iborat "Jamoatchilik ovozi" guruhi tashkil etildi. Ushbu guruh a'zolariga ajrim yoqasidagi va nizoli oilalar biriktirilib, ular bilan manzilli ishlar olib borilishi yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, mahallalar kesimida ajrimlar ko'p kuzatilayotgan hududlarda targ'ibot tadbirlarini amalga oshirish bo'yicha reja-jadval ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilmoqda. Bu jarayonda mahalla yettilligi mas'ul etib belgilangan.

Maqsad — ajrimlarni yuzaga keltirayotgan sabablarni o'rganish va bu boradagi muammolarni hal etish. Muhimi, bu ishlar rasmiy tadbir sifatida emas, balki aniq natijaga qaratilgan amaliy yondashuv asosida olib borilmoqda. Zero, saqlab qolingan har bir oila jamiyat barqarorligining muhim kafolatidir.

Gavhar ALIMOVA,
Kattaqo'rg'on shahar hokimi.

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

20-MAY

Obloqul USMONQULOV — 1938-yilda Payariq tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist. «El-yurt hurmati» ordeni sohibi.

22-MAY

O'lmas MAHMATMURODOV — (1941-2016) Urgut tumanida tug'ilgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniy xodimi.

25-MAY

Abdurashid JABBOROV — 1950-yilda Samarqand shahrida tug'ilgan. Biologiya fanlari doktori, professor.

30-MAY

Isroil JUMANOV — 1943-yilda G'allaorol tumanida tug'ilgan. Texnika fanlari doktori.

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 776 nusxada chop etildi. Buyurtma 192. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

T.SIDDIQOV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi belgilangan holda

